

**O'QUVCHI YOSHLARNI TEXNOLOGIYA FANI JARAYONIDA MODELLASHTIRISH  
QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH**

**Qurbanova Dilafruz Baxtiyorovna**

(6-7 sinf qizlar misolida)

Samarqand viloyati Narpay tumani

16- umumiy o'rta ta'lif maktabi

Texnologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lif maktabalarida texnologiya fanlarini o'qitimishining hozirgi holati va kelajakda rejalashtirilayotgan tadbirlar tahlili hamda texnologiya fanini zamonaviy tendensiyalarini takomillashtirishga xizmat qilishi ko'zda tutilgan

**Kalit so'zlar:** Davlat talablari, normativ-huquqiy, davlat siyosati, modellasshtirish qobiliyatini, moyilligi, xoxish idroklari, fantaziya, kiyim fasoni, yaratuvchanlik qobiliyati.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, insonlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lif tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lif va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lif va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'nnaviy- axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan ana shu maqsadga erishish uchun xozirgi kunda oliy ta'lif muosasalarini boshqarish soxasida har bir rahbar xodimlar va professor- o'qituvchilar normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan o'z huquqlari, majburiyatları va javobgarligini bilishi lozim. 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712- sonli hamda 2019 yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lif tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli va 2019 yil 8- oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lifi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847- sonli, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham o'quvchi yoshlarni kabs-hunarga yo'naltirish ularning vaqtini unumli sarflash haqida gapirib, topshiriqlar berdilar. Bu topshiriqlarning ijrosini ta'minlashda texnologiya fanining ahamiyati katta.

Shulardan kelib chiqib o'quvchi qizlarni yoshlikdan katta hayotga tayyorlash ularni kasb- hunarli, bilimli va albatta intiluvchan qilib tarbiyalash hamda asosiyisi hayotga tarbiyalashda texnologiya fanining o'rni va ahamiyati katta ekanligi e'tirof etilishi lozim.

Texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchi yoshlarning modellashtirish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar quyidagilar hisoblanadi:

- Yoshlarimizni har tomonlama yetuklikka intilishi uchun sharoyitlar yaratish;
- O'z fikrini g'oyasini bayon eta olishga yo'naltirish;
- Dunyo hamjamiyatidagi tengdoshlari bilan raqobatlasha olishiga zamin yaratish kabi xususiyatlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun o'qituvchi pedagoglardan alohida ma'suliyat va bilim talab qilinadi. Eng avvalo pedagoglar o'quvchi yoshlarning qiziqish, moyilligi, xohish idrokleri va imkoniyatlarini o'rganishi va shunga qarab yo'nalish berib borishlari lozim.

Keling biz 6-7 sinf o'quvchi yoshlarning dars jarayoniga yaqinroq kirib boramiz. Bu jarayonda o'quvchi qizlarning modellashtirish qobiliyatini rivojlantirish ustida ishlaymiz. O'quvchilarga ko'rgazma sifatida libos taqdim etiladi, va har bir o'quvchi qiz o'z fantaziysi asosida milliyligimizdan kelib chiqqan holda bu libosni o'zgartirishi yoki yangi eskizni chizishi mumkin bo'ladi hamda libosni yaratishga kirishadilar. Lekin ushbu yumushlar 6-7 sinf qizlari uchun og'irlilik qilmasmikan dastur rejalarini ko'rib chiqish kerakmikan degan fikrga borib qolamiz.

Yoki texnologiya fanidan to'garak jarayonida to'quvchilikni olaylik, o'quvchi qizlarga kichik yoshdagi qizchalarga kiyim to'qish topshirig'ini beramiz. Bunda o'quvchi qizlar iplarning rangini bir biriga hamo-hang qilgan holda tanlashlari, kiyim fasonini o'zları yaratishlari bir-birlari bilan fikr almashishlari yangilik ustida izlanishlari mumkin bo'ladi. Xatolarini to'g'irlab, yutuqlari bilan o'rtoqlashadilar. Bu esa nafaqat o'zlariga balki boshqa o'quvchi qizlarga ham texnologiya faniga qiziqishlariga bu fan orqali kasb-hunar egasi bo'lishlariga turtki beradi.

Bundan tashqari qizlarimizning yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirib ularning kelajakda shu kasbni mukammal o'rganishlariga yordam beradi.

Texnologiya fani boshqa fanlarga qaraganda hayotimiz uchun juda zarur va ahamiyatli fan hisoblanadi. Zero, biz bu fan orqali o'quvchi yoshlarni oilaga, hayotga tayyorlaymiz.

Texnologiya fanining qamrovi katta bo'lib o'z ichiga tikuvchilik, to'quvchilik, oshpazlik, duradgorlik, payvandlash va boshqa bir qator o'g'il qizlar uchun hayotda eng kerakli kasb-hunarlarni mujassamlashtirgani bilan ahamiyatlidir.

Buning uchun har bir texnologiya fani o'qituvchisidan psixolog bo'lish talab qilinadi. Agar biz shu vazifalarni uddalay olsak o'quvchi yoshshlarimiz matabni kasb-hunarga ega bo'lgan holda tamomlaydi va hayotga tayyorligini namoyon eta oladi.

Shu o'rinda xulosa qiladigan bo'lsak o'quvchi yoshlarni texnologiya fani jarayonida modellashtirish qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga ijodiy muhit yaratib, mustaqil fikrlashni, kutilmagan xodisalarga tayyor turib moslashish kabi xususiyatlarini rivojlantirish kerak bo'ladi. Ya'ni o'qituvchi pedagoglar o'quvchilarning vazifalarni bajarishga majburlashlari emas aksincha, bu fanga qiziqtira olishlari mativatsiya berib yo'naltirishlari lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi ke rak. T: O'zbekiston. – 2017.
2. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi loyixasi. Respublika ta'lim markazi. 2020 yil.
- 4.[www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)